"OILA VA XOTIN-QIZLAR" ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI

*B.A. Xonto'rayev, B.B. Valiyev*

# GLOBAL GENDER TAFOVUTI

## INDEKSI

"Mahalla va oila" nashriyoti
Toshkent – 2023

**UOʻK: 316.346.2**
**KBK: 60.54**
**X 74**

**B.A. Xontoʻrayev, B.B. Valiyev**

**Global gender tafovuti indeksi** [Matn]: Tahliliy axborot / B.A. Xontoʻrayev, B.B. Valiyev – Toshkent: "Mahalla va oila" nashriyoti, 2023. – 64 b.

*Mas'ul muharrir:*

**N.M. Egamberdiyeva** "Oila va xotin-qizlar" ilmiy-tadqiqot instituti direktori, pedagogika fanlari doktori, professor

*Taqrizchilar:*

**J.A. Suvankulov** Jizzax davlat pedagogika universiteti oʻqituvchisi, yuridik fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD)

**X.X. Saydivalieva** "Oila va xotin-qizlar" ilmiy-tadqiqot instituti boʻlim boshligʻi, yuridik fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), katta ilmiy-xodim

Mazkur risola Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2022-yil 28-dekabrdagi "2030-yilga qadar Oʻzbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasining 2021–2022-yildagi ijrosi hamda uni amalga oshirish boʻyicha 2023-yilga moʻljallangan chora-tadbirlarni tasdiqlash haqida"gi SQ-682–IV-son qarorining 1-ilovasi bilan tasdiqlangan 2030-yilga qadar O'zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasini 2023-yilda amalga oshirish boʻyicha kompleks chora-tadbirlar dasturidagi vazifalarni amalga oshirish maqsadida tayyorlangan.

Kitob "Oila va xotin-qizlar" ilmiy-tadqiqot institutining JHBL-10/1-sonli "Gender indekslar boʻyicha uslubiy qoʻllanmalar tayyorlash" mavzusidagi ilmiy-tadqiqot loyihasi doirasida ishlab chiqilgan.

Risola "Oila va xotin-qizlar" ilmiy-tadqiqot instituti Ilmiy kengashining 2023-yil 22-iyundagi 3-sonli bayonnomasiga movofiq nashrga tavsiya etilgan.

**ISBN 978-9943-9634-8-1**

© "Oila va xotin-qizlar" ilmiy-tadqiqot instituti, 2023
© "Mahalla va oila" nashriyoti, 2023

# KIRISH

Xotin-qizlar dunyo aholisining yarmini tashkil etib, butun insoniyat salohiyatini toʻliq roʻyobga chiqarish ularning jamiyat hayotiga daxldorligiga bogʻliq boʻlib, iqtisodiy rivojlanish koʻrsatkichlaridan tortib, jamiyatda tinchlik va totuvlikni ta'minlashgacha qamrab oladi.

Barqaror rivojlanish sohasidagi 5-maqsad hisoblanmish gender tenglikni ta'minlash va barcha xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirishga erishish borasida Oʻzbekistonda gender tengligiga erishishning xalqaro koʻrsatkichlari va talablari doirasida keng koʻlamli islohotlar amalga oshirib kelinmoqda. Jumladan, jamiyatda gender tengligini ta'minlash, xotin-qizlarning ehtiyojlarini roʻyobga chiqarish, imkoniyatlarini kengaytirish, muammolarini hal etish, ijtimoiylashuvini ta'minlash davlat siyosatining ustuvor vazifalari qatoridan oʻrin egallagan.

BMT tomonidan 2000-yilda butun xalqaro hamjamiyat bilan birgalikda gender tengligi konsepsiyasi inson faoliyatining asosiy tamoyillaridan biri sifatida qabul qilinishi natijasida mazkur yoʻnalishda bir qator ijobiy oʻzgarishlarga erishildi. Oʻzbekistonda esa oxirgi 6 yilda ayollarni ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy sohalardagi mavqeyini kuchaytirish borasida sezilarli qadamlar tashlandi. Xususan, Oʻzbekistonda xotin-qizlar manfaatlarini ta'minlash va himoya qilishning huquqiy asoslarini yanada takomillashtirish maqsadida 2019-yilning sentabr oyida **"Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari toʻgʻrisida"**gi va **"Xotin-qizlarni tazyiq va zoʻravonlikdan himoya qilish toʻgʻrisida"**gi Qonunlar qabul qilindi.

Bundan tashqari, BMT tomonidan qabul qilingan Barqaror rivojlanishning Beshinchi maqsadini amalga oshirish doirasida "Gender tenglikni ta'minlash hamda barcha xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish"ga oid

to'qqizta vazifa ishlab chiqildi. 2020-yil oktabrda **"Gender tenglik faoli"** milliy tanlovi e'lon qilindi.

Gender islohotlarni amaliyotga tatbiq etish, inson huquqlari himoyasini kafolatlash, aholi turmush darajasini oshirish, iqtisodiy erkinlikni ta'minlash, huquq sohasidagi moddiy va protsessual normalarni takomillashtirishga qaratilgan islohotlar mamlakatimizning xalqaro reyting va indekslardagi ko'r-satkichlari oshishiga sabab bo'lmoqda.

Shu bilan birga, mazkur yo'nalishda ayrim muammo va kamchiliklar saqlanib qolmoqda. Ustuvor xalqaro reyting va indekslarda O'zbekiston Respublikasining yuqori pog'onalarga erishishini ta'minlash maqsadida indeks beruvchi xalqaro tashkilotlarning statistik ma'lumotlariga asoslanadigan Jahon iqtisodiy forumi tomonidan tayyorlanadigan **"Global gender tafovuti"** global hisoboti va boshqa ko'plab xalqaro gender indeks ko'rsatkichlarida O'zbekistonning o'rnini aks ettirish muhim ahamiyatga ega. Chunki bu orqali xalqaro tashkilotlar tomonidan o'tkazilayotgan so'rovlarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar o'z aksini topishiga imkoniyat yaratiladi va oqibatda mamlakatning xalqaro maydondagi imijiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Shu munosabat bilan, global gender indeks reytinglarida O'zbekiston Respublikasining o'rnini oshirish va mustahkamligini ta'minlashning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy masalalarini chuqur tadqiq etish xotin-qizlar va erkaklar o'rtasida siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa sohalardagi tengsizlikni bartaraf etish, O'zbekiston Respublikasining xalqaro maydondagi imijini oshirish imkonini beradi.

Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasining xalqaro reytinglar va indekslardagi o'rnini yaxshilash bo'yicha farmon va qarorlarida belgilab berilgan vazifalarni amalga oshirish zarurligi-ning belgilangani mazkur loyiha mavzusining dolzarbligini tasdiqlaydi.

# MUNDARIJA

KIRISH ........ 3

GLOBAL GENDER TAFOVUTINI BAHOLASH USLUBLARI ........ 5

1. Iqtisodiy ishtirok va imkoniyatlar ........ 8
2. Ta'lim darajasi ........ 9
3. Salomatlik va omon qolish ........ 9
4. Siyosiy vakolat ........ 9

"GLOBAL GENDER TAFOVUTI" INDEKSINI O'ZBEKISTON SHAROITIDA BAHOLASH ........ 22

1. IQTISODIY ISHTIROK VA IMKONIYAT ........ 26
2. TA'LIM DARAJASI ........ 39
3. SALOMATLIK VA OMON QOLISH ........ 55
4. SIYOSIY VAKOLAT ........ 57

XULOSA VA TAKLIFLAR ........ 59

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI ........ 61

"OILA VA XOTIN-QIZLAR"
ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI

*B.A. Xonto'rayev, B.B. Valiyev*

# GLOBAL GENDER TAFOVUTI INDEKSI

"Mahalla va oila" nashriyoti
Toshkent – 2023

Nashr uchun mas'ul: **B. Mavlonov**
Muharrir: **U. Yunusov**
Badiiy muharrir: **F. Sobirov**
Sahifalovchi: **L. Abdullayev**

Nashriyot roʻyxat raqami № 1043191. 24.09.2021-y.
Bosishga ruxsat etildi: 30.08.2023-y.
"Good Pro" garniturasi. Qogʻoz bichimi: 70x100 $^{1}/_{16}$
Nashriyot bosma tabogʻi 3,7.
100000, Toshkent shahri, Mirzo Ulugʻbek tumani,
M.Ismoiliy koʻchasi 1-G uy.

*Kitob bepul tarqatiladi.*

«Pages Print» kitob fabrikasida chop etildi.
Toshkent, Olmazor tumani, Chimboy koʻchasi, 8-uy.